



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Quchqorov Javlon Suyundik o'g'li

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali
Biznesni boshqarish kafedrasida o'qituvchisi*

O'Z-O'ZINI O'QITISHGA MILLIY G'OYA VA DEMOKRATIYANING MADANIY HODISALAR SIFATIDAGI DIALEKTIK ALOQADORLIKLARI MOTIVATSION YONDASHUV SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy g'oya va demokratiyaning madaniy hodisalar sifatidagi dialektik aloqadorliklari «madaniyat» tushunchasini izohlovchi konsepsiyalar, madaniy borliq, onglik, jamiyat to'g'risidagi g'oyalar ekanligi, demokratik islohotlarning asosiy maqsadi, o'rni yoritib berilgan.

«Tarixga nazar tashlansa, - tarix fanlari doktori, professor M.Is'hoqov, - umumtaraqqiyot ko'lamida insoniyat tarixining yalpi ijtimoiy harakat ma'nosi ochiladi. Insoniyat tarixining ayni ijtimoiy harakat va uning jahon miqyosida turli-tuman mahalliy va xususiy ko'rinishlari yotadi. Ularni taraqqiyot qonunlarining umumiylik birlashtiradi. Tarixchi uchun xususiylikda umumiylikni va aksincha, umumiylikda xususiylikni ko'ra bilishdir.»¹ Mamlakat darajasidagi bu umumiy substansional jarayon ijtimoiy hayotning har bir sohasi va tizimlarida o'ziga xos holda yuz beradi. Misol uchun, kichik korxonaning tashkil qilinishini olaylik. Uni shakllantirish uchun muayyan mablag', xomashyo, mehnat qurollari va ishchi kuchi kerak. Ularning miqdoriy konsentratsiyasidan korxonada ikkinchi bosqichga ko'tariladi. Endi xomashyo, bilak kuchi muayyan iste'mol buyumlariga o'tgan bo'ladi. Tayyor holiga kelgan iste'mol buyumlari o'ziga xos sifat muayyanligiga egaki, ular birinchi bosqichda mavjud bo'lmagan. Korxonada shakllanishining uchinchi bosqichi ushbu

¹ Is'hoqov M. Tarixiy tadqiqotlar metodi va metodologiyasi haqida ayrim mulohazalar. //»Vodiynoma» ijtimoiy-tarixiy, ilmiy va ommabop jurnal. 2016 yil. №1-soni.12-bet.



iste'mol buyumlarining realizatsiya, jumladan, iste'mol qilinishidir. Agar yaratilgan iste'mol buyumlari realizatsiya qilinmasa, muayyan iste'molchilarini topa olmasa, korxonalar bankrot bo'ladi. Agar realizatsiya bosqichi iste'molchilarning talablarini qondira olsa, korxonaning mavjudlik ehtiyojlari ham qondiriladi va bu bilan korxonaning mavjudligi va rivojlanishi ta'minlanadi. Bu jarayonlarning yuz berishi korxonaning ichkarisidagi mavjud demokratik tartiblarga bog'liqdir., va aksincha, korxonaning saqlab qolinishi iqtisodiy demokratiyaning normal amal qilinishining sharti hisoblanadi.

Ushbu substansional jarayonlar milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasida ham ustivorlik qiladi. Birinchidan, demokratiya subyektlari, ikkinchidan, demokratik ehtiyojlar, uchinchidan, demokratik ong, to'rtinchidan, demokratik ijodkorlik, beshinchidan, demokratik ijodkorlik natijalari – demokratik norma, tartib va muassasalar va, oltinchidan, demokratik ijodkorlik natijalarining amal qilishi – bular milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasining sistema tashkil etuvchi oltita substansional elementlaridir. Bu tizimda birinchi substansional element milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasining subyekti, ikkinchisi motivi, uchinchisi gnoseologik asosi, to'rtinchisi va oltinchisi mavjudlik usullarini va beshinchisi mavjudligi manbai va vositalari funksiyalarini bajaradilar. Bu tizimda ham birinchi, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi substansional elementlar o'ziga xos maqsad va sifat muayyanliklariga ega bo'lganliklari uchun milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasining birinchi bosqichini, beshinchi substansional element – demokratik ijodkorlik natijalari o'ziga xos sifat muayyanliklariga ega ikkinchi bosqichini va demokratik ijodkorlik natijalarining hayotga tatbiq etilishi ham o'ziga xos jarayonlardan iborat uning uchinchi bosqichini tashkil etadi. Bu tizimda ham birinchi bosqichdan ikkinchi bosqich, ikkinchi bosqichdan uchinchi bosqich kelib chiqadi va uchinchi bosqich esa, agar oltinchi substansional element – demokratik ijodkorlik namunalarning hayotga tatbiq etilishi ikkinchi substansional element – demokratik ehtiyojlarga mos kelsa va qondira olsa, birinchi bosqichning mavjudligini ta'minlaydi. Bu demokratik harakat tufayli milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasining substansional bir butunligi qonuni kelib chiqadi. Bu qonun milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasining mexanizmini tashkil etadi. Bu qonun mamlakatning normal tadrijiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. E'tiborni yana tarix fanlari doktori, professor M.Is'hoqov ko'rsatgan umumiy qonuniyatlar tizimiga o'tamiz va undan xususiylik tomon boramiz. Kishilik tarixining asosi – madaniy borliqning ikkinchi va uchinchi substansional qonunlari ham mavjud. Madaniy borliqning uchala bosqichlari yoki oltita substansional elementlarining genetik ravishda bir-birlarini keltirib chiqarishlari uzluksiz davom etadi. Harakat iste'mol bilan tugamaydi, balki ehtiyojlar har kuni yaratuvchilik jarayonlarini taqozo qilaveradi. Shuning uchun madaniy borliqda har kuni va har yili ilgarilama harakat yuz beradi. Bu jarayonni madaniy borliqning substansional ilgarilama doiraviy aylanishi qonuni deymiz. Bu bilan kishilik tarixi evolutsiyasi yuz beradi. Bu qonun kishilik tarixi evolutsiyasi, jumladan, milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasining manbaini ko'rsatib beradi. Chunki ikkinchi substansional element – ehtiyojlar va oltinchi substansional element – natijalarning



o‘zlashtirilishi – iste’mol madaniy borliqning ikki qutbi hisoblanadi. Ularning bir-birlarini taqozo etishlari madaniy borliq, demakki, jamiyatning birligini va mavjudligini ta’minlaydi. Ularning bir-birini inkor etishlari esa bu ikki qutbning kurashini, ya’ni madaniy borliqning harakati va rivojlanishini keltirib chiqaradi. Ular o‘rtasidagi ziddiyat bir sifatdan ikkinchi sifatga yoki bosqichga o‘tishlariga olib keladi.

Inson ehtiyojlari iste’mollar negizida doimo o‘tib boradi. Bu bilan madaniy borliqning yo‘nalishi kelib chiqadi. Demak, ehtiyojning oshib borishi qonuni faqatgina iqtisodiy emas, balki umumijtimoiy substansional qonundur. Madaniy borliqqa xos uchta substansional qonunlar – madaniy borliqning substansional bir butunligi, madaniy borliqning substansional ilgarilama doiraviy aylanishi va ehtiyojning oshib borishi qonunlari umumijtimoiy qonunlardir. Yuqorida ta’kidlanganidek, ular ijtimoiy hayotning har sohasida ustivorlik qiladilar va xususiylashadi. Jumladan, milliy g‘oya va demokratik o‘zgarishlar dialektikasi substansional elementlari va bosqichlarining genetik ravishda bir-birlarini keltirib chiqarishlarining uzluksizliklari doimiydir. Bu uzluksizlikdan milliy g‘oya va demokratik o‘zgarishlar dialektikasining substansional ilgarilama doiraviy aylanishi va demokratik ehtiyojlarning oshib borishi qonunlari kelib chiqadi. Agar axloqiylik (axloqiy demokratiya) demokratiyaning ijtimoiy hayotning barcha sohalariga xos quyi darajasi bo‘lsa, yuqori darajasi esa yuridik qonunlarning huquqiy bo‘lishi va uning davlat hokimiyati tomonidan kafolatlanishidir. «Mamlakatda ma’naviy va huquqiy me’yorlar izdan chiqqanda esa, - deydi A.Mo‘minov, - yuridik huquq nuqtayi nazaridan emas, balki qo‘pol jismoniy kuch ishlatishni afzal bilgan tullak, kuchli yovuz kishilar ko‘paya boshlaydi».² Bu va bu kabi ziddiyatlarni ko‘rsatib beradigan manba milliy g‘oya va demokratik o‘zgarishlar dialektikasining substansional ilgarilama doiraviy aylanishi qonunidir. Kezi kelganda shuni aytish kerakki, milliy g‘oya va demokratik o‘zgarishlar dialektikasining substansional ilgarilama doiraviy aylanishi qonuni ushbu sohada yuzaga kelgan ziddiyatlarni ko‘rsatib berar ekan, ularni hal qilishning asosiy yo‘li murosai-modariylikdir. Jumladan, tashqi siyosatimizdagi asosiy demokratik talab suveren tenglikdir. Tenglik demokratiyaning birinchi talabidir. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev shunday degan edi: «Biz tashqi siyosat sohasidagi faoliyatimizni, avvalo, xalqimiz, Vatanimiz manfaatlarini har tomonlama hisobga olgan holda amalga oshiramiz. Bu siyosatning asosini tinchlikparvarlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralshmaslik, yuzaga keladigan ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat tinch, siyosiy yo‘l bilan hal etish tashkil etadi».

Demak, milliy g‘oya va demokratik o‘zgarishlar dialektikasining o‘ziga xos substansional qonunlari ham bo‘lib, ular quyidagilar: milliy g‘oya va demokratik o‘zgarishlar dialektikasining substansional bir butunligi qonuni, milliy g‘oya va demokratik o‘zgarishlar dialektikasining ilgarilama doiraviy aylanishi qonuni va demokratik ehtiyojlarning oshib borishi qonuni. Demokratiya to‘g‘risidagi bilimlarimizni ushbu qonuniyatlar to‘g‘risidagi g‘oyalar bilan to‘ldirish katta nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

² Mo‘minov A. O‘zbekiston: axborotlashgan jamiyat sari. – T.: «Turon Zaminziyo», 2013. 6-7-betlar.